BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TO'G'RI O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA OHANG VA URG'UNING O'RNI

Abduvaliyeva Nodira Alisherovna
FarDU dotsenti,filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Husanova Gulzodaxon Rustamjon qizi
FarDU talabasi
Telefon raqami:+998885027010
husanovagulizoda@gmail.com
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24245676

Annotatsiya

Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri, ongli va ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishda ohang va urg'uning ahamyati yoritiladi. Boshlang'ich sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklari hamda ona tili o'qitish metodikasiga oid ilmiy -metodik qarashlar asosida o'quvchilarning o'qish malakasini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarda matn mazmunini anglash, gaplarni mazmuniga mos ohangda o'qish va muhim so'zlarni mantiqiy urg'u orqali ajratish ko'nikmalarini shakillantirishga doir amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar : boshlang'ich ta'lim, to'g'ri o'qish, ongli o'qish, ohang, urg'u, mantiqiy urg'u, o'qish savodxonligi, matn mazmuni.

Abstract

This thesis highlights the importance of intonation and stress in developing accurate, conscious, and expressive reading skills among primary school students. Ways to improve students' reading proficiency are analyzed based on primary school "Mother Tongue and Reading Literacy" textbooks as well as scientific and methodological perspectives on native language teaching methods. Furthermore, practical recommendations are provided on how to help students comprehend text content, read sentences with appropriate intonation, and emphasize key words using logical stress.

Keywords: primary education, accurate reading, conscious reading, intonation, stress, logical stress, reading literacy, text content.

Аннотация

В данных тезисах освещается значение интонации и ударения в формировании навыков правильного, осознанного и выразительного чтения у учащихся начальных классов. На основе учебников «Родной язык и читательская грамотность» для начальных классов, а также научно-методических взглядов, касающихся методики преподавания родного языка, анализируются пути развития читательских навыков учащихся. Кроме того, даются практические рекомендации по формированию у школьников умений понимать содержание текста, читать предложения с соответствующей содержанию интонацией и выделять важные слова с помощью логического ударения.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ключевые слова: начальное образование, правильное чтение, осознанное чтение, интонация, ударение, логическое ударение, читательская грамотность, содержание текста.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimining asosiy maqsadi o'quvchilarda nafaqat harf tanish va bo'g'inlab o'qish texnikasini, balki matn mazmunini chuqur anglash, tahlil qilish va o'z fikrini ravon bayon etish — ya'ni o'qish savodxonligini shakllantirishdan iborat. Xalqaro PIRLS baholash dasturi talablaridan kelib chiqib yaratilgan yangi avlod darsliklarida matnni to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish bosh mezon sifatida belgilangan. Bu jarayonda nutqning asosiy fonetik vositalari bo'lgan ohang va urg'u muhim o'rin tutadi.

Nutq jarayonida ovozning ko'tarilishi, pasayishi, pauza, nutq sur'ati va tembrining o'zgarib turishi ohang (intonatsiya)deyiladi [4]. Ohang so'zlar qo'shilmasini gapga aylantiruvchi eng muhim vositadir.Ohang gaplarni darak,buyruq, so'roq va his-hayajon(undov) gaplarga ajratadi. Inson bir xil so'zlarni turli ohangda aytish orqali har xil ma'noni yoki munosabatni ifodalashi mumkin. Masalan, "Bugun havo juda yaxshi" gapini xursandchilik, hayrat yoki oddiy xabar ohangida aytish mumkin. Gapning qanday ohangda talaffuz qilinishi tinglovchiga yetkazilayotgan fikrning mazmuniga ta'sir qiladi.Shuning uchun,boshlang'ich sinf o'quvchilariga matnni ohangga rioya qilgan holda o'qishni o'rgatish lozim. Ayniqsa, she'rlar, ertaklar, hikoyalar va dialoglarni o'qishda ohangning ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ertakdagi quvnoq qahramon nutqi bilan xafa qahramon nutqi bir xil ohangda o'qilmasligi kerak. O'quvchi qahramonning kayfiyatini his qilgan holda o'qisa, matn mazmunini ham chuqurroq anglaydi.

Urg'u – so'zdagi bo'g'inlardan birining yoki gapdagi so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq va cho'ziqroq ovoz bilan aytilishidir[3].O'zbek tilida urg'u ikkiga bo'linadi:

So'z urg'usi.O'zbek tilida urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi (kitób, maktáb, vatán). Boshlang'ich sinfda so'z urg'usini to'g'ri qo'yish orfoepik me'yorlarga rioya qilish va ma'nosi urg'u orqali farqlanadigan so'zlarni (ólima — ayol olim, olmá — meva; yángi — sifat, yangí — ravish) to'g'ri tushunish imkonini beradi.

Mantiqiy urg'u. Gapdagi biror so'zni boshqalariga nisbatan kuchliroq ovoz va alohida ohang bilan ajratib aytish mantiqiy urg'u deyiladi. 2–3-sinf "O'qish savodxonligi" darsliklaridagi she'riy va nasriy matnlarni tahlil qilishda mantiqiy urg'uni o'zgartirish orqali gap mazmunining o'zgarishini kuzatish mashqlari qo'llaniladi. Masalan, "Bugun men kutubxonaga bordim" gapida urg'u "men" so'ziga tushsa, harakatni boshqa birov emas, aynan so'zlovchi bajargani ta'kidlanadi. Agar urg'u "kutubxonaga" so'ziga ko'chirilsa, borilgan manzilga e'tibor qaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim darsliklarida o'quvchilarning ohang va urg'u bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.Masalan,2-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining "Matn va gap" hamda "Men va texnoolam" bo'limlarida ohangni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi amaliy mashqlar berilgan[2]. Darslikda berilgan "Eng yaxshi ixtirolar" matni misolida o'quvchilar dialogik nutqni rollarga bo'lib o'qish orqali darak, so'roq va undov ohanglarini farqlash hamda mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini egallaydilar.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.



O'qing.

Bahor keldi

Bir kuni tongda Maftunani uyqudan "qurey-qurey" degan ovoz uyg'otib yubordi. U o'rnidan tura solib, derazadan tashqariga boqdi. Osmonda arg'imchoq solib, turnalar uchib o'tar edi.

U onasining oldiga borib so'radi:

– Oyijon, ana u qanday qushlar?

– Turnalar, qizalog'im, turnalar. Ular biz tomonga bahorni olib kelishdi.


– Bahor kelganini qanday bilsa bo'ladi, oyijon?

– Turli-tuman qushlar uchib keladi. Dalalarda maysalar yam-yashil bo'ladi. Daraxtlar qiyg'os gullaydi.

– Bahor unda yaxshi ekan-da?! – dedi Maftuna.

Vafo Fayzulloh

64



Eng yaxshi ixtirolar

Buvi: Ko'zoynakni ixtiro qilgan odamning otasiga rahmat! Shu narsa bo'lmasa, men nima qilardim-a?

Temur: Buvijon, sizningcha, dunyodagi eng yaxshi ixtiro qaysi?

Buvi: Odamlarning og'irini yengil qilgan ixtirolarning hammasi yaxshi. Gazetada o'qigandim, g'ildirak ham eng yaxshi ixtirolardan biri ekan.

Temur: G'ildirak? Axir, u oddiy narsa-ku!

Buvi: Ammo qadimda, hali ko'p narsa ixtiro qilinmagan vaqtlarda, g'ildirak oddiy narsa bo'lmagan. Hozir senga oddiy tuyuladigan telefon, bir vaqtlar biz uchun mo'jizaga o'xshar edi.

O'ylab ko'ring.

1. Sizningcha, dunyodagi eng yaxshi ixtiro qaysi?
2. Ixtirochi bo'lsangiz, nima ixtiro qilgan bo'lardingiz?

Urg'u tushunchasi boshlang'ich sinf o'quvchilariga 1-sinfdanoq nazariy qoida sifatida o'rgatilmaydi. Biroq pedagoglar dars jarayonida

"Sehrli savol" (gapdagi kerakli so'zni balandroq ohangda ajratib o'qish,berilgan savol orqali urg'uning qaysi so'zga tushyotganini aniqlash)

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Masalan:Bugun Anvar kutubxonaga bordi
• Qachon bordi?— Anvar kutubxonaga BUGUN bordi.

• Kim bordi? — Bugun kutubxonaga ANVAR bordi.
• Qayerga bordi? — Bugun Anvar **KUTUBXONAGA** bordi.
• Nima qildi? — Bugun Anvar kutubxonaga **BORDI**.

"Chapak va qadam"(urg'uli bo'g'inni kuchliroq zarb bilan talaffuz qilish)

Masalan: O'qituvchi so'zlarni aytadi. O'quvchilar urg'usiz bo'g'inlarda sekin chapak chaladilar, urg'uli bo'g'inga kelganda esa **balandroq chapak** chaladilar (yoki o'rinlaridan turib qo'llarini ko'taradilar).

• **So'zlar:** *va-**tan**, ki-**tob**, o'-quv-**chi**, mu-al-**lim**, O'z-be-kis-**ton**, ka-pa-**lak**.

"Ma'no o'zgaradi" (olma — meva va olma — harakat kabi so'zlarni farqlash)

Masalan: **Olma**(meva — urg'u oxirida: ol-**ma**) **Olma** (harakat, fe'l — urg'u birinchi bo'g'inda: **ol**-ma). Namuna: Bog'dan qizil ol**ma** terdim. Ruxsatsiz birovning narsasini **ol**ma! kabi interfaol mashqlardan foydalanib, o'quvchilarda to'g'ri talaffuz va ohang ko'nikmalarini amaliy shakllantiradilar[1][5].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ohang va urg'uga rioya qilgan holda o'qishga o'rgatish matn mazmunini to'g'ri idrok etishning asosiy omilidir. Dars jarayonida tinish belgilariga qarab ovoz ohangini boshqarish hamda mantiqiy urg'u yordamida tayanch so'zlarni ajratish o'quvchilarda ifodali o'qish malakasini shakllantiradi. Ayniqsa, yangi avlod darsliklaridagi ertak, hikoya va dialogik matnlarni rollarga bo'lib o'qish, savol-javoblar orqali so'z urg'usini to'g'ri qo'yish mashqlaridan muntazam foydalanish bolalarning matn ruhiyatini chuqur his qilishiga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, kichik yoshdagi o'quvchilarning og'zaki nutqini boyitishga, o'z fikrini ravon va ta'sirchan bayon etishiga hamda o'qish savodxonligini yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Q., Nazarov K., Yo'ldosheva Sh. Savod o'rgatish metodikasi. — Toshkent: "O'qituvchi", 1996. — 144 b.
2. Kuranov S.D. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. IV qism. — Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. — 88 b.
3. Mavlonova K.M., Hakimova N.S., Siddiqov M.R., Qo'ldosheva S.H. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. I qism. — Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. — 144 b.
4. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. — Toshkent: "Cho'lpon", 2019. — 144 b. [1, 2]
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. — Toshkent: "Noshir", 2009. — 352 b.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.